



## O'SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**G'ulomova Malikaxon Xaydarali qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi.*

**Soibjonova Diloromxon Akramjon qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi.*

**G'ofurova Muqaddaxon Shavkatbek qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi.*

**Kalit so'zlar:** o'smir, axloq, biologik, jamoa, ta'lim, tarbiya, jazo, o'smirlik, his-tuyg'u, o'yin.

**Ключевые слова:** подросток, нравственность, биологическая, коллектив, воспитание, обучение, наказание, подростковый возраст, эмоция, игра.

**Key words:** teenager, morality, biological, team, education, training, punishment, adolescence, emotion, game.

O'smirlik davri chegaralari tahminan 5-8-sinflarga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davrni qamrab oladi, lekin o'smirlik yoshiga o'tish 5-sinflga o'tish bilan mos tushmasligi va bir yil oldin yoki keyin sodir bo'lishi mumkin. O'smirlik davrining alohida vaziyati nomlarida ifodalanadi: "o'tish", "keskin o'zgaruvchan", "mushkul", "tanqidiy". Ularda bu yoshda sodir bo'ladigan rivojlanish jarayonlarining murakkab va muhimligi qayd etilgan. Inson rivojlanishining barcha yo'nalishlari bo'yicha (jismoniy, aqliy, ruxiy, axloqiy, ijtimoiy) katta sifat va axloqiy o'zgarishlar ro'y beradi. O'smir shaxs rivojlanishining muhim omili – uning shaxsiy faolligi – shaxsiyat, o'zini e'tirof etish va aniqlash jarayoni faol kechadi – biroq bu jarayon bir tekis emas.

Bir tomondan o'smirlarda "kattalik namoyon bo'la boshlaydi, boshqa tomondan esa hali "bolalik" qoladi. O'smirlar rivojlanishining umumiy yo'nalishlari turlicha bo'lishi va har bir yo'nalish ko'plab variantlarga ega bo'lishi mumkin. Bumasa muhim pedagogik ahamiyatga ega.

O'smirlik yoshida muhim o'zgarishlar ro'y beradi, ular organizmning jismoniy o'sish va biologik voyaga yetishi bilan bog'liq. O'smirning kattalarga o'xshashga urinishi tashqi tomondan ular kabi bo'lish, kattalar hayoti va faoliyatining ayrim taraflariga qo'shilishda kattalar xislati, xulqlari, mavqelarini o'zlashtirishga harakat qilishda namoyon bo'ladi. O'smir uchun tengdoshlari bilan muloqot u mustaqil harakat qilgan o'zining shaxsiy munosabatlari muhitiga ajraladi. U bunga haqqim bor, deb o'ylaydi, o'z huquqlarini himoya qiladi va aynan shuning uchun ham kattalarning o'rinsiz qo'pol harakatlarini xafagarchilik va norozilikka olib keladi. O'smirda bir tomondan tengdoshlari bilan muloqot qilish va hamkorlikdagi



faoliyatga intilish yaqqol namoyon bo'ladi. Jamoa hayoti bilan yashash, yaqin o'rtoqlar, do'stga ega bo'lish hohishi – do'stlar bilan qabul qilingan, tan olingan, hurmat qilingan bo'lishdek kuchli xohishdir. Bu muhim talabga aylanib boradi. O'smir uchun eng yoqimsiz vaziyat – jamoa va o'rtoqlarining noroziligi, muloqot qilishni istamasligi, eng og'ir jazo esa ochiq yoki nooshkor aloqani uzish, gaplashmaslikdir.[1]

Hozirgi davrda o'smirlarni tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari xatti-harakat motivlaining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to'la hisobga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo'llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni yuzaga keltirmaydi, sinf jamoasi o'rtasida iliq psixologik iqlimni yaratadi.

Turg'unlik yillaridagi so'z bilan ishning nomunofiqligi, axloq tarbiyasidagi qo'pol xatolar o'smirlarning ruxiy dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Insonning ruxiy dunyosini yubdan qayta qurish, tarbiyani insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda o'smirlar taqdiri masalasi ham g'oyat jiddiy tus olmoqda.

O'smirlar muammosiga e'tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

1) Fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarayotganligi;

2) ommaviy axborot ko'lamining kengayishi tufayli o'smirlar ongliligi darajasining ko'tarilishi;

3) o'g'il va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat fan vatexnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy qonunlaridan tarixdan yetarli daraada xabardorligi;

4) ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallashgani;

5) o'smirlar bilan ishlashda g'oyaviy-siyosiy va vatanparvarlik va baynaminal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi;

6) oshkoralilik, ijtimoiy adolat, demokratiya muammolarining ijtimoiy hayotga chuqur kirib borayotgani;

7) o'quvchilar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o'zini-o'zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.

O'smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko'chish jarayoni sodir bo'ladi. O'smirda psixologik jarayonlar keskin o'zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi.[2]





O'smirlaming sinf va maktab yer uchastkasidagi mehnat faoliyati o'z mohiyati bilan zarur axborot va ma'lumotlar berib, murakkablashib, ulaming kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shib, mehnat samarasidan, mahsulidan lazzatlanish his-tuyg'ularini shakllantira boshlaydi. O'smirlik davrida ham o'yin faoliyati ma'lum vaqtgacha shaxsning kamolotida o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Jamoa bo'lib amalga oshiriladigan o'yinlar va ulaming keng ko'lamda o'tkazilishi o'tish davrida vujudga keladigan qiyinchiliklarni yengillashtirishga xizmat qiladi. O'yin faoliyati o'smirda yuksak axloqiy his-tuyg'ularni vujudga keltiradi, matonatlilik, jasurlik kabi fazilatlar shakllanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Mazkur faoliyat o'smirlarning aqliy jihatdan o'sishiga, fikr yuritishiga, o'z his-tuyg'usini boshqarishiga, jismoniy kamol topishiga turtki vazifasini o'taydi. O'yinning har xili bilan mashg'ul bo'lish o'smirlarni fahmlashga, eslab qolishga, biror ishni amalga oshirishdan oldin uni rejalashtirishga va diqqatni bir nechta ob'ektga taqsimlashga odatlantiradi. Tiyraklik, tezkorlik, farosatlilik kabi muhim xususiyatlar, xislatlar ham o'yin va sport mashg'ulotlarida tarkib topadi. O'smir kamolotga erishgan sayin uning psixik dunyosida yangi fazilatlar va sifatlar paydo bo'la boshlaydi, psixikasida keskin qayta qurish sodir bo'ladi. O'zgarishlar uning oldiga yangi talablar qo'yadi, bu esa o'z navbatida ko'proq huquq va erk berishni, eng avvalo mustaqil qarorga kelish va o'z xulq-atvorini maqbul deb hisoblab amalga oshirishni taqozo qiladi. Psixik takomillashish, kamolotga intilish, nisbiy barqarorlik o'smirlik davrining eng muhim xususiyatlari hisoblanadi. Hozirgacha balog'atga erishish va jinsiy yetilishning jadallashishi to'g'risida bir butun ilmiy nazariya mavjud emas. Shuning uchun o'smirlarning jadallashuv, ya'ni akseleratsiya bo'yicha ham muayyan nazariya yaratilmagan. Ana shu boisdan har xil ilmiy asosdagi, bir-biridan farqli e'tirozli qator nazariyalar paydo bo'lgan. Quyida akseleratsiya muammosiga oid qarashlar bilan tanishib chiqamiz. Geliogen nazariyasi.

O'smirlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, nuqtai nazar, pozitsiya, o'zligirini anglash, baholash va hokazolar shakllanadigan davr hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bola kattalarning ko'rsatmalari yoki o'zining tasodifiy, ixtiyorsiz orzuistaklari bilan harakat kilsa, o'smir o'z faoliyatini muayyan prinsip, e'tiqod va shaxsiy nuqtai nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O'smir shaxsining tarkib topishida axloq o'ziga xos, ong alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda o'quvchilarning axloqiy tushunchalarni o'zlashtirishi va ularni turmushga tatbiq etishi muhim rol o'ynaydi. Umuminsoniy xislatlarni shakllantirish jarayoni, o'quvchidagi ishonch, aqida, nuqtai nazarning qarama-qarshiliklariga duch keladi. O'smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrofmuhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Chunki o'smirda muayyan narsalarga munosabat shakllangan



bo'ldi. Ijtimoiy turmushni kuzatish, undagi inson uchun zarur ko'nikmalarni egallash kattalar xulq-atvorini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Natijada favqulodda holatlarga - katta yoshdagi odamlarining tutgan yo'li va uslubini baholash ko'nikmasi tarkib topa boshlaydi. O'smir xulq-atvorini baholashda (rag'batlantirish yoki jazolashda) kattalarning qat'iyatliligi, prinsipialligi sinchkov o'quvchi tomonidan tahlil qilinadi va qo'llangan tadbirlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi yana bir marta tekshiriladi. Shuning uchun rag'batlantirish va jazolash usullari oqilona, o'z vaqtida qo'llanishi kerak.[3]

O'smirlik davrida bolaning aql-zakovatini kamol toptirish uchun unga ko'proq mantiqiy tafakkur usullarini o'rgatib bo'rish kerak bo'ldi. Bunda mantiqiy xatolarni tuzatib borish ham yoddan chiqarilgan kerak bo'ldi. O'smirlik davrida to'g'ri mantiqiy fikrlashni oshirish uchun ona tili va adabiyot o'qituvchilarning roli muhim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'smirlarning psixologik xususiyatlari - Arxiv.uz
2. A.Rahmonov, Y.Jumanazarov, S.Akbarov "Yosh davrlari psixologiyasi" Namangan-2009
3. "Ontogenez psixologiyasi" E.G'oziyev Toshkent 2020
4. qizi To'yeva, M. S. (2022, November). YANGI O'ZBEKISTON ORIFA AYOLLARI VA G'ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
5. Рахматуллаева, Ф., & Шаробиддинов, А. (2023). YALPI HUDUDYIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI. ИЖТИМОЙ-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/4), 140-146.
6. Azimovna, R. F. (2024). Youth Entrepreneurship and its Development Measures. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(1), 340-343.
7. Atakhodjaeva, G. A., Rakhimov, S. M., & Azimova, N. Z. (2017). Вариабельность ритма сердца у больных с хронической сердечной недостаточностью и метаболическим синдромом. Likars' ka sprava, (3-4), 31-37.